



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/5



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 5-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 5 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

BOJXONA TO'LOVLARI TO'LANISHINI TA'MINLASH USULLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Farxodov Farrux Furqatovich

Bojxona instituti Bojxona to'lovlari va statistikasi kafedrası katta o'qituvchisi,

email: farrux.farxodov@gmail.com

Abdubannobov Abdulmajid Abdumalik o'g'li

Bojxona instituti 4-kurs kursanti

email: abdulmajidabdubannobov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqotda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash usullaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash usullari, xususan bank kafolati, depozit, sug'urta, kafillik hamda bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minoti mexanizmlariga qaratilgan bo'lib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona to'lovlari, bojxona kafolatlari, bosh ta'minot, bank kafolati, sug'urta polisi, garov, xavfni boshqarish, raqamlashtirish.

KIRISH. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo aylanmasining jadallashuvi bojxona to'lovlarini undirish tizimini samarali boshqarishni taqozo etmoqda. Davlat budjeti daromadlarining manbai hisoblangan ushbu to'lovlar mamlakatning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Mazkur sohadagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Bojxona, Soliq va Budjet kodekslari hamda "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

To'lovlarni ta'minlash usullari fiskal xavflarni minimallashtirish va to'lov intizomini mustahkamlash maqsadida amaliyotda quyidagi ta'minot turlaridan foydalaniladi: pul mablag'larini depozitga qo'yish; tovarlar garovi; bank kafolati; sug'urta polislari hamda kafillik shartnomalari.

Xalqaro tajriba va istiqboldagi vazifalar rivojlangan davlatlar (AQSH, YeI, Janubiy Koreya, Singapur) tajribasi shuni ko'rsatadiki, bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va ularni xavfni boshqarish tizimlari bilan integratsiyalash halol tadbirkorlar uchun keng imtiyozlar yaratadi.

Shunga qaramay, milliy amaliyotda bojxona to'lovlarini ta'minlash mexanizmlarini qo'llash bilan bog'liq muayyan tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois, mavjud holatni tanqidiy tahlil qilish, xalqaro andozalar asosida qonunchilikni takomillashtirish va sohadagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI. Bojxona to'lovlarining undirilishi va to'lov intizomining ta'minlanishi bo'yicha mamlakatimizning bir qator olimlari, jumladan T.N.Pardaev, A.O.Shadmankulov, F.F.Farxodov, O.A.Sarmanov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Kioto konvensiyasida bojxona to'lovlarini ta'minlash bojxona xavfsizligining muhim elementi sifatida e'tirof etilgan. Xususan, Konvensiyaning

“Kafolatlar” bobida kafolat turlarini erkin tanlash, kafolat summasini bojxona organlari tomonidan belgilash, shuningdek, ishonchli ishtirokchilar uchun kafolat talablarining soddalashtirilishi kabi muhim normalar mustahkamlangan. Xalqaro tadqiqotlarda, L.De Wulf va J.Sokol, shuningdek T.Cantens, R.Ireland va G.Raballandlarning ilmiy ishlarida kafolatlar tizimini risk darajasiga qarab differensiallashtirish bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirish va fiskal tushumlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur tadqiqot bojxona to’lovlari to’lanishini ta’minlash usullarini, xususan bosh ta’minot mexanizmini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o’rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida O’zbekiston Respublikasining amaldagi bojxona va budget qonunchiligi, Jahon bojxona tashkilotining normativ hujjatlari, shuningdek, rivojlangan davlatlarning bojxona amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqotda normativ-huquqiy, qiyosiy, empirik, tizimli yondashuv, tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA TAHLIL. Bojxona to’lovlari davlat budgetining barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bojxona to’lovlari to’lanishini ta’minlash mexanizmlari fiskal xavflarni kamaytirish, to’lov intizomini mustahkamlash va bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq, bojxona to’lovlari ta’minlash quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshiriladi: depozit, garov, bank kafolati, sug’urta polisi va kafillik (1-rasm).

Amaliyot shuni ko’rsatadiki, ushbu usullar orasida eng ko’p qo’llaniladigani bank kafolati va depozit hisoblanadi. Garov, sug’urta va kafillik mexanizmlari esa nisbatan kam qo’llanilib, bu holat ularni rasmiylashtirishdagi murakkabliklar hamda byurokratik talablar bilan izohlanadi. Natijada tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun muqobil va qulay ta’minot mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.



1-rasm. Bojxona to’lovlari to’lanishini ta’minlash usullari

KIOTO konvensiyaning bosh ilovaning “Kafolatlar” 5-bobida 5.1. “Milliy qonunchilikda kafolatlar berilishi lozim bo’lgan holatlar ro’yxati berilgan va ularni ta’minlash shakllari belgilangan”, 5.2. “Bojxona xizmati kafolatlar summasi miqdori belgilangan”, 5.3. “Kafolatni taqdim etish talab etilgan har qanday shaxsga, ushbu shakl bojxona xizmatiga ma’qul kelishi sharti bilan, kafolatning har qanday shaklini tanlashga yo’l qo’yilishi” 5.4. “Milliy qonunchilikda nazarda

tutilgan hollarda, bojxona xizmati majburiyatning bajarilishiga ishonch hosil qilsa, bojxona xizmati kafolatni talab qilmasligi mumkin”, 5.5. “Bojxona protsedurasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash uchun kafolat taqdimnomasi talab qilinadigan hollarda bojxona xizmati, shu jumladan bojxona hududida turli bojxona organlariga tovarlarni muntazam ravishda deklaratsiya qiluvchi deklarantlardan, umumiy kafolatni qabul qiladi” deb keltirilgan.

Ushbu xalqaro konvensiyaning talabiga muvofiq bojxona to’lovlari uchun umumiy ta’minot (general security) qabul qilinishi lozimligi haqida aytib o’tilgan. Ta’kidlash joizki, 2024-yil 27-fevraldagi O’RQ-913-sonli Qonun bilan bosh ta’minot tushunchasi milliy qonunchilikka to’liq implementatsiya qilindi.

Bojxona to’lovlari to’lashning bosh ta’minoti bir shaxs tomonidan muayyan davrda amalga oshiriladigan bir nechta bojxona operatsiyalari bo’yicha to’lovlarni yagona ta’minot orqali kafolatlash imkonini beradi (2-rasm). Bu esa tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish va moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Bosh ta’minot bank kafolati, sug’urta polisi yoki tovarlarni garovga qo’yish orqali taqdim etiladi va bojxona organlari tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 21-noyabrdagi 3579-sonli Nizomda Bosh ta’minot qo’llashning aniq tartibini belgilab berildi.



2-rasm. Bosh ta’minot sifatida taqdim etiladigan bojxona to’lovlari to’lanishini ta’minlash usullari.

Mazkur mexanizmning asosiy afzalligi shundaki, u doimiy bojxona operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtiradi hamda har bir operatsiya bo’yicha alohida ta’minot taqdim etish zaruratini bartaraf etadi. Shu bilan birga, bosh ta’minotdan foydalanish ixtiyoriy hisoblanadi.

Biroq, amaliyotda bosh ta’minot mexanizmini qo’llash bilan bog’liq muammolar mavjud. Jumladan, kafolatlarining markazlashgan yagona elektron reestri mavjud emasligi, kafolat muddati monitoringining avtomatlashtirilmaganligi va ta’minot summalarini belgilashda risk darajasining yetarlicha inobatga olinmasligi fiskal xavflarni oshiradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bojxona to’lovlari ta’minlashda yagona elektron kafolat tizimi (Comprehensive Guarantee System) joriy etilgan bo’lib, unda kafolatlar real vaqt rejimida monitoring qilinadi va ularning amal qilish muddati avtomatik tarzda nazorat qilinadi. AQSH bojxona amaliyotida esa





Customs Bond instituti keng qo'llanilib, ishonchli importyorlar uchun kafolat summolari xavf darajasiga qarab diferensiallashtiriladi. Ushbu yondashuvlar bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirish bilan birga, fiskal xavflarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston amaliyotida joriy etilgan bosh ta'minot mexanizmi Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash usullaridan barchasidan foydalanish imkoni yo'qligi, axborot tizimlarning integratsiyalashmaganligi, kafolatlarni baholashda xavf-profillardan yetarli darajada foydalanilmasligi, bank va sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik mexanizmlarining cheklanganligi bojxona to'lovlari ma'murchiligini yanada liberallashtirish zaruratini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Mazkur tadqiqot bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash usullaridan foydalanish amaliyotini tahlil qilish orqali bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash usullari takomillashtirish fiskal xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligini ko'rsatdi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash bo'yicha yagona markazlashgan elektron reestrni joriy etish va uni bojxona axborot tizimlari bilan integratsiyalash;

bosh ta'minot summalarini belgilashda xavfni boshqarish tizimi va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining toifalash darajasini inobatga olish;

bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning bosh ta'minoti turida bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlashning barcha usullarini qo'llash.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi bojxona to'lovlari ma'murchiligini takomillashtirish, fiskal xavflarni minimallashtirish hamda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Bojxona to'lovlari to'lanishini usullarini rivojlanishi tashqi savdo jarayonlarining soddalashuvi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. - T.: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami, <https://lex.uz/docs/-2876354>;
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. - T.: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami, <https://lex.uz/docs/-2304138>
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. "Bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2024-yil 21-noyabr, 3579-son.
4. Revised Kyoto Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures. – Brussels: WCO, 2018.
5. World Customs Organization. Risk Management Compendium. – Brussels: WCO, 2020.
6. European Commission. Union Customs Code (UCC). – Official Journal of the European Union, 2013.
7. United States Customs and Border Protection. Customs Bonds Guidelines. – Washington, DC, 2022.



8. Фарходов, Ф. Ф. ихтисодий интеграция чуқурлашуви шароитида божхона тўловларини қўллашни оптималлаштириш йўллари Тўлқин Насирович Пардаев.
9. Pardaev, T. N., & Farkhodov, F. F. (2024). Божхона тўловларини ҳисоблаш, ундириш ва давлат бюджетига ўтказишнинг айрим масалалари. *Economics and Innovative Technologies*, 12(4), 115-123.
10. Cantens, T., Ireland, R., & Raballand, G. (2012). *Reforming Customs by Measuring Performance: A Practical Approach*. Washington, DC: World Bank.
11. Raballand, G., Cantens, T., & Bilangna, S. (2017). *Customs Reform and Performance Contracts*. World Bank Policy Research Working Paper.
12. De Wulf, L., & Sokol, J. (2005). *Customs Modernization Handbook*. Washington, DC: World Bank.

